

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Carter, R., & McCarthy, M. (2006). Cambridge Grammar of English: A Comprehensive Guide. Cambridge University Press.
2. Swan, M. (2005). Practical English Usage. Oxford University Press.
3. Eastwood, J. (1994). Oxford Guide to English Grammar. Oxford University Press.
4. Leech, G., & Svartvik, J. (2002). A Communicative Grammar of English. Longman.
5. Thornbury, S. (1999). How to Teach Grammar. Longman.

Talabalarda milliy iftixor tuyg'ularini shakllantirishda hadis ilmining pedagogik, psixologik ta'siri

Sobirov Ziyovuddin Po'latjon o'g'li

Andijon davlat tibbiyot instituti

Pediatriya yo'nalishi 2-kurs talabasi

ziyovuddin23@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada Payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v.)ning hayotidan so'ng insonlar hayoti uchun, ularning ham ma'naviy, ham madaniy holatini yaxshilashda katta ta'siri bo'lgan hadislarning talabalarning hayotidagi o'rni haqida so'z borgan. Biz yoshlari uchun hozirgi kunda Imom al-Buxoriy, Imom at-Termiziyy, Imom al-Hajjoj, Imom an-Nasoniy, Imom Sijjistoniy kabi allomalarimizning qimmatbaho asarlarida keltirilgan hadislarning insonlar hayotida o'rmini ham ko'rib o'tishimiz mumkin.

Kalit so'zlar. Hadis, Muhammad (s.a.v.), Imom al-Buxoriy, Imom at-Termiziyy, Imom al-Hajjoj, Imom an-Nasoniy, Imom Sijjistoniy, musnad, sahih, sunnan.

Kirish. Hadislari – Islom dinining manbaalaridan biri bo'lib, Payg'ambar Muhammad (s.a.v.)ning so'zlari, amallari va u kishiga bog'langan tasdiq va rad etilganini o'z ichiga oladi. Hadis ilmi islomiylar asosida o'rganiladigan muhim sohalardan biri bo'lib, u nafaqat diniy bilimlarni, shuningdek, talabalar psixologiyasi va pedagogikasi uchun ham muhim ahamiyatga ega. Hadislari Payg'ambar Muhammad (s.a.v.)ning so'zlari va amallari sifatida, talabalarga axloqiy, ma'naviy va ilmiy jihatdan yetuk inson bo'lishlariga yordam beradi. Hadislari ma'naviy tarbiya sifatidagi talabalarga chuqur axloqiy, ma'naviy tushunchalarni singdiradi. Ular orasida halollik, to'g'ridan-to'g'ri mehr-oqibat kabi kelib chiqadigan xislatlar hadislari orqali ilm ahliga yetkaziladi. Masalan, Payg'ambarimiz (s.a.v.) bir hadislari: "Sizlarning yaxshi odob-axloqi chiroyli bo'lganlaringizdir" degan. Ilm olishning qadr-qimmati haqida

Payg'ambar Muhammad (sav) ko'plab hadislar aytib o'tganlar. Jumladan: “Ilm olish har bir musulmon erkak va ayol uchun farzdir” degan.

Hadislar talabalarga axloqiy qadriyatlar va odob-axloq qoidalarini o'rgatadi. Bu ularning shaxsiy va ijtimoiy hayotida muhim rol o'ynaydi. Sabr-toqat, halollik,adolat va mehr-muhabbat kabi fazilatlar hadislar orqali talabalarga singdiriladi. Hadislar talabalarga hayotda maqsad qo'yish va unga erishish uchun motivatsiya beradi. Payg'ambar Muhammad (s.a.v.)ning hayoti va so'zlari talabalarga o'rnak bo'lib, ularni ilm olishga va o'z maqsadlariga erishishga undaydi. Hadislar orqali talabalar sabr-toqat, qanoat va shukr qilish kabi fazilatlarni o'rganadilar. Bu ularning stress va bosim bilan kurashish qobiliyatini oshiradi. “Sabr qilgan kishi najot topadi” kabi hadislar talabalarga qiyin vaziyatlarda sabr qilishni o'rgatadi. Hadislar talabalarga boshqalar bilan yaxshi munosabatda bo'lishni, hurmat va mehr-muhabbatni o'rgatadi. Bu ularning ijtimoiy hayotini yaxshilaydi va jamoada ishlash qobiliyatini oshiradi. “Musulmon musulmonning birodaridir” kabi hadislar talabalarga ijtimoiy birdamlikni o'rgatadi. Hadislar talabalarning ruhiy sog'lig'ini mustahkamlashga yordam beradi. Ular orqali talabalar o'zlarini tinchlantirish, ichki xotirjamlikni topish va ruhiy muvozanatni saqlashni o'rganadilar. Bu esa ularning umumiylu ruhiy holatini yaxshilaydi. Talaba olayotgan ilmini va hikmatlarini chuqur ehtirom bilan eshitmog'i lozim. Agar bir masalani ming marotaba eshitishga to'g'ri kelsa, har vaqt butun vujudini qulq qilib, joni bilan eshitmog'i kerak bo'ladi. Bu haqida donishmandlar naql qiladilar: -Agar tolib bir masalani ming marta eshitgandek, ta'zim bilan eshitmasa u ahli ilm bo'la olmaydi.

Asosiy qism. Ilm takror bilan pishiq va puxta bo'ladi. Arab maqollarida: „Hamma narsa sarflash bilan zavol topadi, faqat ilm qancha sarflansa shuncha ziyoda bo'ladi”, - deyiladi. Tolibi ilmni biror ilm turini o'zi ixtiyor qilmog'i durust emas.

Islom dini ta'minotida “Quron”dan keyin turadigan hadislar to'plamlarini alohida ta'kidlab o'tishimiz darkor. VIII asrning ikkinchi yarmidan boshlab hadis ilmi bilan shug'ullana boshlangan. Hadislar dastlab yozib borilmagan VIII-IX asrlar hadis ilmi uchun „oltin davr” hisoblanadi. Islom dunyosida eng nufuzli manbalar deb sanalgan oltita ishonchli to'plamni yaratgan vatandoshlarimiz bo'lib hadis ilmini rivojlantirishga ulkan hissa qo'shdilar. Bularni sanab o'tadigan bo'lsak: Imom al-Buxoriy (“As-Sahih”), Imom al-Hajjoj (“As-Sahih”), Imom at-Termiziyy (Aj-jami al-kabir), Imom an-Nasoniy (“Sunnan”), Imom Sijistoniy (“Sunnan”).

Hadislar islom dini ta'limotida uch xil yo'nalishda o'rganiladi:

- 1.Musnad – bunda turli mavzudagi hadislar bir joyga to'plangan va alifbo tartibida joylashtirilgan bo'ladi.
- 2.Sahih – ishonchli hadislar. Bu yo'nalishga Buxoriy asos solgan.

3.Sunnan – aralash hadislar bo‘lib, to‘g‘ri va zaif hadislar ham kiritilgan. Hadislarni o‘rganish ilm ahlini yana bir bor ilmsiz amal qilmaslikka undaydi. Mavlononing bir hikoyatida keltirilgan bir darveshning ilmsiz holatda Allohga tavba qilib, uzlatga chekingani, tun-u kunini ibodat bilan o‘tkazib, dunyo ishlaridan ajralib qolishi aytildi. Darveshning ismi Barsiso bo‘lib, uning bunday holda ibodatga vaqt sarflashi, tavba qilishi shaytonga yoqmaydi va uni yo‘ldan urish uchun harakat qiladi. Va maqsadiga erishadi. Uning ilmsiz holda amallar qilishi oxir-oqibat uni iymonsiz holda jon berishiga sabab bo‘ladi. Demak, ilm yo‘liga kirib borar ekanmiz albatta asoslangan, teran fikrlar bilan, yo‘lda o‘z fikrimizga ega holda harakatlanishimiz zarur.

Talaba ilmu hunarga moil bo‘lishida turli kishilarning munosabatini ahamiyati bor. Avvalo ota, so‘ng onaning rizoligi, duolari va albatta, farzandini qo‘llab, qiziqtirib borishlari bilan, uchunchidan ustozning mehr-muhabbati, samimiylar ta’limi va o‘zining metodikasi bo‘yicha bolaning qiziqishiga qarab to‘g‘ri yo‘l ko‘rsatishi katta ahamiyatga ega. Eng asosiy o‘rinda farzandning orzu-niyyatlariga qaratilgan o‘zining astoydil harakatlari hisoblanadi. Hadis ilmining talabalar uchun ahamiyati va ta’siri judda beqiyosdir. Quyida buning isboti sifatida bir nechta asosiy jihatlarini ko‘rib chiqamiz:

-Islomiy bilimlarni chuqurlashtirish: Hadislar Payg‘ambarimiz Muhammad (s.a.v.)ning so‘zlari va amallari bo‘lib, Islomiy qonunlar va axloqiy qoidalalrn tushunishda muhim ahamiyatga ega. Talabalar hadislarni o‘ganish orqali diniy bilimlarini mustahkamlashlari mumkin.

-Axloqiy tarbiya: Hadislar shuningdek, axloqiy qadriyatlar va odoblarni o‘rgatadi. Talabalar hadislarni o‘rganish orqali yaxshi xulq-atvorni rivojlantirishi mumkin.

„Hayotda avval ilm tahsil qil, keyin kasb-xunar qilib haloldan mol-dunyo to’pla! Shunday keyin uylan! Chunki, agar ilm tahsil qilayotgan vaqtingda moldavlat talabiga o’tsang, shubhasiz ilm olishga ojiz bo‘lasan. Moldavlating ko‘payib, maishatga qiziqasan, cho‘ri va yosh xizmatchilarga sotib olishga rag‘bating oshadi. Shu bilan davlat ko‘paytirish va xotinlar bilan mashg‘ul bo‘lib qolib, ilmdan benasib bo‘lasan. Umring va qimmatli vaqtlarining bekor ketadi. Keyin bolalaring ko‘payadi, ahli ayol g‘am-tashvishlari ham ortib, o‘z-o‘zing bilan bo‘lib qolasan. Shubhasiz, hojatlarini chiqarish va manfaatlarini ziyoda jalb qilishga berilasan. Natijada ilmni va uning foydalarini tark qilasan! Ey farzand! Yoshlik vaqtingda ilm bilan shug‘ullan! Yoshlikni g‘animat bilib ilm, kasb-hunar egalla! Chunki, unda qalbing turli g‘am-tashvish, muammolardan holiy bo‘ladi. Nimani qiziqib o‘rgansa, qalbga o‘rnashadi. Ilm va kasb egallagandan keyin moldavlat yig‘ishga harakat qilsang, to‘g‘ri yo‘l tutgan bo‘lasan. Ahli ayol, far-zandlarni ko‘pligi, shubhasiz, qalb va hayolingni egalaydi, tashvish va muammolar ko‘nglingni band qiladi. Qachon moldavlat to’plasang

uylan. Maslahat bilan munosib va salohiyatlari kishilarning soliha farzandini turmushing mazmuniga aylantir", -degan fikrlarni juda ko'p manbalarda uchratishimiz mumkin. Bunday fikrlar ko'plab hadislarda ham keltirilgan vas hu hadislar orqali bobolarimiz biz yoshlarni ilm yo'liga chorlaganlar. Ilm olish, yangi g'oyalarni kashf etish insonni kamolotga yo'liga yetaklaydi. Yangi sivilizatsiyalarga sabab bo'ladi. Hadislardan insonlarni ilm olishga, kamolotga, axloqli bo'lishga, bir-biriga oqibatli, mehribon bo'lishga, yolg'on gapirmaslikka chorlaydi. Shu sababli boshqalar qatori hadislardan talabalarning hayotida ham katta o'rinni tutadi. Ularning o'qib, izlanib bilim olishiga, axloqli, tartib-intizomli bo'lishiga, mehr-oqibatli bo'lishiga chorlaydi. Bu to'grisida bir asarda shunday keltirilgan:

Aqlning kamoliga belgi tafakkurlik sukul erur,
Tilning otganin bil durru-hikmat, beba ho yoqut erur.
Har neki, til o'zidan otdi, sohibiga axmoq nom otdi.

Xulosa. Talaba o'z ustida doim ishlashi, ilmini taraqqiy ettirishi kerak. Buning uchun fahm-farosat hamda zehnining o'sishiga va mustahkamlanishiga kirishmog'i zarur bo'ladi. Quvvati hofizani kuchaytiradigan omillardan biri o'z vazifasiga jiddiylik hamda bardavomlik bilan yondashishi hisoblanadi. Hadisi shariflar mazmunini fikr qilib, ulug'larimiz ilm va kasbni tahsilini vaqtin beshikdan lahadgachadir, deb belgilaganlar. Demak, inson umri boricha o'rganish, harakat qilishdan to'xtamasligi kerak. Hazrat Hasan ibn Ziyod (a.r.) yoshlari saksonlarga borganda ilm olishga, fiqhni o'rganishga kirishgan ekanlar. Shundan so'ng qirq yil yonboshlari ko'rpacha ko'rmadi. Qirq yildan keyin fatvo bera boshlagan ekanlar. So'fiy Allohyorning ushbu baytlarining mazmuni e'ti-borga molikdir:

Agar nafsing sani yetmish boshingdin,
Na bo'lg'ay foyda yetmish yoshingdan.
Agar nafsing murodin izlamasaig,
Agar saksanga umring yetsa saksan.

Inson doimo olg'a intilishi, yangi bilimlarni kashf qilishga harakat qilishi, fikrlash doirasini kengaytirib borishi zarur. Bunda esa unga albatta mutafakkirlarimizdan qolgan topilmas qo'lyozmalar, qimmatbaho hadislardan, takrorlanmas asarlar katta o'rinni tutadi. Ularni o'qib, o'rganish biz yoshlarni buyuk kelajak sari yetaklaydi. Shunday ekan biz bu boyliklarimizni asrab-avaylashimiz, bizdan keying kelajak yoshlariiga ham yetkazishimiz darkor.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. [Markaziy osiyoda hadis ilmining rivojlanishi buyuk muhaddislar](#)
2. [Talabalar oquv faoliyati psixologiyasi](#)

3. „Ilm olish sirlari” Zokirjon Sharifov tarjimasi, Toshkent 2004
<https://lib.jdpu.uz/storage/uploads/files/a8706e615c6343dfad011850a7514679.pdf>

4. „Mavlonodan qalbga malham hikmatlatlar” tasavvufiy hikoyalar, Go‘zal Mirzayeva, „Yangi asr avlodi” 2022, 176bet

5.Ijtimoiy tarmoqlar

DORIVOR GULXAYRI (ALTHAEA OFFICINALIS) O‘SIMLIGINING BOTANIK TASNIFI VA DORIVORLIK XUSUSIYATI.

Shodiyeva Zulayxo Shavkatovna

Samarqand davlat veterinariya meditsenasi chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Veterinariya farmasevtikasi kafedrasи assistant

Dusiyarov Farrux Sherzod o‘g‘li

Veterinariya farmasevtikasi ta’limy o‘nalishi 3-bosqich talabasi

Annatatsiya: *Dorivor gulxayri* - *Althaea officinalis* o‘simligi qadimdan xalq tabobatida shifobaxsh xususiyatlari bilan tanilgan. Uning ildizlari oshqozon va ichak tizimini yaxshilash, yallig‘lanishni kamaytirish va jigarni tozalashda samarali qo‘llaniladi. Shuningdek, gulxayri immun tizimini mustahhkamlash, yurak sog‘ligini yaxshilash va toksinlarni chiqarishda yordam beradi.

Kalit so‘zlar: *Dorivor gulxayri* - *Althaea officinalis* dorivor o‘simlik, shifobaxsh xususiyatlari, oshqozon, ichak tizimi, yallig‘lanishga qarshi, toksinlarni chiqarish, jigarni tozalash, immun tizimi, yurak sog‘ligi, infuziya, choy, tabobat, xalq tabobati.

Mavzuning dolzarbliji: Ma’lumki, dunyo miqyosida farmatsevtika korxonalarida ishlab chiqarilayotgan dori vositalarining taxminan 50 % dorivor o‘simliklar xomashyosidan tayyorlanadi. Biroq tabiiy holda o‘suvchi dorivor o‘simliklar zaxiralaring chegaralanganligi tufayli ular kamayib, yo‘qolib ketish arafasiga kelib qolgan. Ushbu maqolada noyob dorivor o‘simliklarning biologik tuzilishi, kimyoviy tarkibi va tibbiyotda ishlatilishi haqida ma’lumotlar keltirilgan.